

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYA FANINI O‘QITISHDA
TALABALARNING FAMILISTIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

N.M. Nagmetova

*p.i.f.d (PhD), Ajiniyoz nomidagi NDPI, Boshlang‘ich ta’lim
kafedrasi dotsenti*

Zamonaviy jamiyatda familistik madaniyat (oilaviy qadriyatlar) asrlar davomida milliy an’analar, diniy qarashlar va ijtimoiy normalar asosida shakllangan bo‘lib, bolalarning ma’naviy-axloqiy shaxs sifatida kamolotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Boshlang‘ich ta’lim tizimi – bu yosh avlodga oilaviy munosabatlarning ahamiyati, avlodlararo hamjihatlik va mehr-muhabbatni o‘rgatishning asosiy bosqichidir. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani orqali talabalarda familistik madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Familistik madaniyat – oila a’zolarining o‘zaro munosabatlaridagi madaniy, axloqiy va psixologik jihatlarni ifodalovchi tushuncha bo‘lib, quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- oilaviy qadriyatlarga hurmat (ota-ona, buva-buvilarga nisbatan mehr);
- avlodlararo an’analarni saqlash va ulug‘lash;
- oilaviy mas’uliyat va birlikni tushunish;
- gender hamjihatlik va tenglik tamoyillari.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida bu qadriyatlarni shakllantirish ularning kelajakdagi oilaviy hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich ta’limda familistik madaniyatni rivojlantirish – bu nafaqat darslikdagi bilimlarni o‘rgatish, balki yosh avlodning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish jarayoni hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani darslarida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar, jumladan, ijodiy loyihalar, hikoyalar, muammoli vaziyatlar va didaktik o‘yinlardan talabalarda oilaviy qadriyatlarni chuqur anglashga imkon beradi. Bu jarayonda pedagogning vazifasi har bir talabaning oilasi bilan bog‘liq ijobiy tajribasini ulug‘lash va uni jamiyat manfaatlariga moslashtirishdan iborat.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta’lim sohasiga kirib kelishi alohida e’tibor qaratadigan yo‘nalishlardan biri ekanligini ta’kidlash lozim. Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarning to‘g‘ri joriy

etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida ish olib borishiga olib keladi. Bu esa o‘quvchidan ko‘proq erkinlikni, ijodkorlikni talab qiladi. Har qanday pedagogik texnologiyaning ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o‘quvchini kim o‘qitayotgani va o‘qituvchi kimni o‘qitayotganiga bog‘liq [11].

Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani darslarida familistik madaniyatni rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanishimiz mumkin:

- didaktik o‘yinlar;
- muammoli vaziyatlar;
- hikoyalardan foydalanish;
- ijodiy loyihalar.

Ushbu metodlardan foydalanishda “Oila daraxti”, “Kim kimga yordam beradi?” kabi rolli o‘yinlar, oilaviy mavzularni tahlil qilish, “Ota-onamga minnatdorman” mavzusida hamda “Mening oilam” kabi ijodiy hikoyalardan samarali foydalanish mumkin.

Masalan, “Oila daraxti” loyihasida talabalar o‘z oilalari tarixini tadqiq qilish orqali ajdodlarga hurmatni o‘rganadi, “Kim kimga yordam beradi?” kabi rolli o‘yinlar orqali oilaviy mas’uliyatni tushunishadi, “Ota-onamga minnatdorman” rasmi va qo‘l yozma albomlarini tayyorlaydi, “Mening oilam” mavzusida real hayotdagi quvonchli va qiziqarli hikoyalar tuzadi.

Oliy ta’lim muassasalarida ota-onalar uchun ochiq eshiklar kuni har o‘quv yilida bir marotaba tashkil qilinadi. Ya’ni, farzandlarining o‘qish davomidagi odob-axloqi va tartibi, ichki tartib-qoidalar bilan tanishtiriladi. Lekin darslarga ota-onalar taklif etilmaydi. Bizning fikrimizcha, aynan boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani darslarida ba’zi mavzularni o‘tishda ota-onalarni jalb qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Masalan, “Oila baxt qo‘rg‘oni” va “Oiladagi munosabatlar” kabi amaliy darslarda “Katta oila” dasturlari, ota-onalar bilan master-klaslarni birgalikda tashkil etish ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahlaydi va merh-muhabbatni oshiradi.

Shuningdek, “Oila va maktab” mavzusidagi seminar-treninglarni o‘tkazish ham talabalarda familistik madaniyatni rivojlantirishda samarali usullarning biri bo‘lib hisoblanadi. “Oila ichida muloqot” tarbiyaviy treningi ota-ona va farzandlar, farzandlarning bir-biriga o‘zaro hurmat va oilaviy muhitda sog‘lom muloqotni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, nizoli vaziyatlarda murosaga kelish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday treninglar orqali talabalar

nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lishadi, balki amaliy mashg‘ulotlar orqali kommunikativ kompetensiyalarini ham mustahkamlashadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanini o‘qitish jarayonida talabalarning familistik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida olib borilishi zarur. Bu yo‘nalishda ta’lim jarayoniga oilaviy qadriyatlar, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, mas’uliyat, hamjihatlik kabi tamoyillarni integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, familistik madaniyatni mustahkamlovchi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, amaliy mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar va pedagogik treninglar orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishadi. Bu esa ularning kelajakda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sifatida o‘z o‘quvchilarida ham oilaviy qadriyatlarni targ‘ib etish salohiyatini oshiradi. Familistik madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar tarbiya fanining mazmunini boyitadi va uni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vaxobov J., Nurmonov A. “Oilaviy tarbiya asoslari”. T.: 2020.
2. Белова С.В. Диалог основа профессии педагога: Учебно-методическое пособие / С.В. Белова. - М.: АПК и ПРО, 2002. – 148 с
3. Куронов М. Миллий тарбия. - Т.: «Маънавият», 2007.
4. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. (Анализ зарубежного опыта) - Рига, НПП «Эксперимент», 1995.